



TURKISTONDA PARLAMENTCHILIK HARAKATI SHAKLLANISHI TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI

Каримова Хуршида Ниматжоновна

Фарғона 41-ИДУМ тарих фани ўқитувчиси

Каримова Хуршида Ниматжоновна

Преподаватель истории в Ферганском городском
школы № 41

Karimova Khurshida Nimatjonovna

History teacher in the Ferghana city school No. 41

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15393698>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 12th May 2025

KEYWORDS

manba, hisobot, gazeta, davriy matbuot, arxiv hujjatlari, memuar manbalar, parlament, Davlat dumas, Xalq sho'rosi (Millat Majlisi), partiya, fraksiya, jadidlar.

ABSTRACT

Maqolada Turkistonda parlamentchilik haqidagi qarshlarning vujudga kelishi, ushbu fikrlar mualliflari, ularning mazmuni, parlamentchilik haqidagi g'oyalar nashr etilgan estaliklar, gazetalar haqidagi ma'lumotlar haqida fikr yuritilgan. Shuning bilan birga Turkiston o'lkasida parlamentchilik haqidagi qarashlar haqidagi arxiv hujjatlari haqida, shuningdek, II Davlat dumasida mahalliy deputatlarning chiqishlari haqidagi manbalar tavsifi berilgan.

Turkistonda parlamentchilik harakatlariga oid manbalarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Davlat dumas stenografik hisobotlari.
2. Davriy matbuot materiallari.
3. Arxiv hujjatlari.
4. Memuar manbalar.

Ikkinchi chaqiriq Davlat dumas 1907-yil 20-fevralda ish boshlab, 2-iyunga qadar faoliyat ko'rsatdi. Dumada jami 53 ta majlis, shu bilan birga, ba'zan kechki majlislar ham o'tkazilgan. Ushbu davrda Duma faoliyati stenografik hisobotlarda kunma-kun yoritilgan. Duma stenografik hisobotlarini yozib boruvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan. Ular Duma majlislarida har 5 daqiqada o'rin almashib turganlar. Yozib olingan hisobotlar maxsus tekshiruvdan o'tgandan keyingina rasmiylashtirilgan. Hisobotlarda deputatlar ismi-shariflari, qaysi fraksiya yoki guruhga mansubligi, tuzilgan doimiy va muvaqqat komissiyalar, Dumada muhokama qilingan masalalar yuzasidan deputatlarning chiqishlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan [26, 5, 6, 8, 27]. Ayniqsa, turkistonlik deputatlarning Duma minbaridan qilgan chiqishlari tadqiqot muammosi uchun qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida foydalanilgan Duma stenografik hisobotlari tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) umumiy stenografik hisobotlar; 2) maxsus ko'rsatmali stenografik hisobotlar; 3) qonunchilik bilan bog'liq bo'lgan stenografik hisobotlar.

Umumiy stenografik hisobotlar manbaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning umumiy hajmi 1158 sahifani tashkil etadi. Ushbu stenografik hisobotda Davlat dumasii ikkinchi chaqirig'ida o'lkadan saylangan vakillarning qaysi paytda deputat sifatida ro'yxatdan o'tganligi, Musulmon fraksiyasi tomonidan Dumaga berilgan talabnomalar, vakillarning qaysi komissiya tarkibiga saylanganligi, agrar masalaga munosabat, o'lkadan saylangan yevropalik vakillarning Duma minbaridan qilgan chiqishlari mazmuni haqidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin [27. 25, 90, 346, 987, 1499-1504, 1570, 1754].

Maxsus ko'rsatmali stenografik hisobotlar tadqiqot uchun eng muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi, chunki ularda turkistonlik vakillarning Dumada qaysi paytda ro'yxatdan o'tganligi, o'lkadan saylangan mahalliy va yevropalik vakillarning qaysi fraksiyaga mansubligi va qaysi komissiyalarga saylanganliklari, qonunlar loyihasi muhokamasidagi ishtiroki, ko'chirish siyosati, agrar masala muhokamasi, Turkistonda lalmi [47. 485]¹ va o'zlashtirilmagan yerlardan soliq olishni tartibga solish borasida mahalliy va yevropalik vakillarning Duma minbaridan so'zlagan nutqlari to'liq keltirilgan [5. 20-21, 30-31, 90, 106, 160, 163, 218, 1030, 1037-1038, 1124, 1164, 1251-1252, 1478].

Qonunchilik bilan bog'liq bo'lgan stenografik hisobotlarda Musulmon fraksiyasining kadetlar partiyasi bilan hamkorlik, boshlang'ich maktablarda ona tilida ta'lim olish, ko'chirish siyosati, Turkistondagi lalmi va o'zlashtirilmagan yerlardan olinadigan soliq masalasiga doir ma'lumotlar mavjud [8. 113, 160, 450, 673-680].

Duma stenografik hisobotlarini o'rganish turkistonlik vakillarning Duma majlislarida va fraksiyalar ishida ishtiroki, ularning chiqishlari mazmuni, siyosiy salohiyati, qay darajada munosib deputat ekanligi haqida xulosalar chiqarishimizga asos bo'ladi.

Manbalarining ikkinchi guruhini davriy matbuot materiallari tashkil etadi. O'z navbatida ularni ham uch guruhga bo'lish mumkin:

- a) "Turkestanskiy sbornik";
- b) Milliy jadid matbuoti;
- c) Rus va o'zbek tillaridagi rasmiy nashrlar.

"Turkestanskiy sbornik" davriy matbuot materiallari to'plami bo'lganligi bois uning materiallaridan foydalanish mavzuni yoritishda qimmatli ma'lumotlarni beradi. To'plamda tadqiqot uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar asosan musulmon davriy matbuotidan olingan materiallar hisoblanadi. To'plamda o'lkada Dumaga o'tkazilgan saylovlar, saylangan deputatlar, ular haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Dumada qonun qabul qilish jarayonlari, musulmon vakillar faoliyati, Musulmonlar fraksiyasi va "Musulmon xizmat toifasi" guruhi haqida to'plamdan ma'lumotlar olish mumkin. Turkistonning turli shaharlarida Davlat dumasiga o'tkazilgan saylovlar, "Musulmonlar partiyasi" ustavi loyihasi va boshqa ma'lumotlar haqida ma'lumotlar berilgan [30]. Jumladan, to'plamda mahalliy aholining deputat saylovi bo'yicha hukumatdan talabi, saylov o'tkazilishi qoidalari, saylov o'tkazilishi jarayonidagi kamchiliklar, o'lkadan saylangan mahalliy va yevropalik deputatlar haqida, o'lka vakillarining til bilish darajasi [31. 18, 39, 85, 177, 179], vakillarning fraksiyaga birlashuvi [32. 61], Musulmon vakillar o'rtasidagi bo'linish sabablari, Musulmon fraksiyasida tuzilgan ichki

¹ Lalmi yer – sug'orilmaydigan, suvsiz, yog'indan suv ichadigan; bahori (yer yoki g'alla haqida) // Ўзбек тилининг изоҳли луғати // А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Б. 485.

komissiyalar [33. 31, 40, 41-43, 60, 65, 66], o'lkadagi xalq ta'limi masalalari, 1907-yil 3-iyunda qabul qilingan qonunning asl mohiyati [34. 181, 179], musulmon vakillar tomonidan dumaga topshirilgan talabnoma [35. 40] va talay boshqa ma'lumotlar topish mumkin.

To'plamda mavjud, lekin tadqiqotda bevosita foydalanilmagan materiallar ham jarayonning umumiy holatini tasavvur etishda yordam berdi. Masalan, saylangan vakillarning aholi bilan uchrashuvlari, "Ittifoqi musulmin" partiyasining Nizomi [36. 32-35, 54-55], o'lkadan saylangan vakillarning til muammosi [37. 179], joylarda o'tkazilgan saylov bosqichlari [38. 179], musulmon vakillarining yer qonuni loyihasi [39. 18], Turkistonda o'tkazilgan saylovlarning umumiy manzarasi [40. 100] haqida ma'lumotlarni olish imkoniyatini berdi.

Ikkinchi guruhga o'lka milliy yetakchilari – jadidlar tomonidan nashr etilgan milliy matbuot materiallari kiradi. Jadid namoyondalari orasida parlamentchilik g'oyalari vujudga kelishi, ularning bu boradagi tasavvurlari, Davlat dumasiga saylovlar va uni o'tkazilishi haqidagi ma'lumotlar 1906–1907-yillarda nashr etilgan milliy davriy matbuotda yoritilgan. Shuning bilan birgalikda, Turkiston milliy jadidlari siyosiy qarashlariga tatar, boshqird va ozarbayjon demokratlari ta'sir ko'rsatganligi, ular kadetlar bilan hamkorlik qilish tarafdori ekanligi, keyinchalik esa bu boradagi qarashlar o'zgarib borganligi haqidagi ma'lumotlar ham davriy matbuot sahifalarida ko'p uchraydi [49]. Gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan materiallar orqali o'sha davr ma'rifatparvarlarining siyosiy faoliyati, jadidlarning hukumat siyosatiga nisbatan munosabatini tasavvur qilish mumkin.

II Davlat dumasi tarqatib yuborilganidan keyin, Turkistondagi ko'plab mahalliy davriy nashrlar faoliyati taqiqlandi. Fevral inqilobidan keyingi davrdagi siyosiy erkinlik natijasida tashkil etilgan mahalliy matbuot sahifalarida parlamentchilik masalasi bilan bog'liq maqolalarda bu boradagi yangicha talqinlar berila boshlangan. Ulardan asosan o'lkada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, dastlabki milliy-siyosiy tashkilotlar, ularning faoliyati, Butunturkiston musulmonlari qurultoylari, Turkiston Muxtoriyati, Xalq Sho'rosi (Milliy majlis), uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, "Ulug' Turkiston", "El bayrog'i", "Kengash", "Hurriyat" gazetasi sahifalarida o'lka musulmonlari qurultoylari, unda ko'rilgan masalalar, 1917-yilda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan. Turkiston Muxtoriyati e'lon qilingach, "Ulug' Turkiston" va "El bayrog'i" gazetalari hukumatning rasmiy minbariga aylandi. Muvaqqat hukumat va Xalq Sho'rosi tomonidan amalga oshirilgan ishlar asosan yuqorida zikr etilgan ikki matbuot organi sahifalarida yoritilgan.

Manbalar uchinchi guruhiga XX asr boshida chop etilgan rasmiy va davriy matbuot materiallarini kiritish mumkin. Ushbu gazetalardan faqat "Turkiston viloyati gazetasi"dan boshqa barcha gazetalari rus tilida nashr etilgan. Davriy matbuot sahifalarida o'lkadagi jadid namoyondalari orasida parlamentchilik haqidagi qarashlarning shakllanishi, saylov haqidagi tushunchalar va saylov qoidalari, 1905-yil 17-oktabr Manifesti haqidagi maqolalar, Davlat dumasiga saylovlar, Dumaga Turkistondan vakillar saylanishi, zamonaviy demokratik respublika boshqaruv usuli, milliy va hududiy muxtoriyat, saylovda yo'l qo'yilgan ba'zi xatoliklar haqidagi ma'lumotlar topish mumkin. Ushbu rasmiy nashrlar hukumat tomonidan taqiqlanmasa-da, ularda bevosita mavzuga doir ma'lumotlar berilmagan. Keyinchalik 1917-yilga oid rasmiy nashrlarda esa Ta'sis Majlisi, o'lka musulmonlari qurultoylari, Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat hukumat va Muvaqqat parlamenti haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan [29, 2, 9, 25, 26, 22, 23, 28]. Mazkur ma'lumotlar Turkistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jumladan, parlamentchilik harakatlariga oid muhim manbaviy baza bo'lib xizmat qiladi.

1917-yil Fevral inqilobidan keyin mamlakatda ayrim demokratik erkinliklar joriy etila boshlandi. Butun Rossiyada bo'lganidek, Turkiston o'lkasida ham dastlabki yangi siyosiy

institutlar va mahalliy matbuot organlari shakllana boshladi. Ushbu matbuot organlari sahifalarida Butunrossiya Ta'sis Majlisi va Turkiston Muxtoriyati Ta'sis Majlisiga oid ma'lumotlar yoritib borildi. Mahalliy matbuot sahifalarida 1917-yil davomida Butunrossiya Ta'sis Majlisiga saylovlar keng yoritilgan bo'lsa, Butun Turkiston musulmonlari IV qurultoyidan keyin Turkiston Muxtoriyati va faoliyatiga doir ma'lumotlarga keng o'rin berila boshlandi.

Manbalarning uchinchi guruhini arxiv hujjatlari tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Milliy Arxivi Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi yirik fondlardan biri hisoblanadi [16]. Unda Turkiston o'lkasi boshqaruvi va xo'jalik hayotiga oid muhim hujjatlar saqlanadi. Jumladan, Davlat dumasiga saylov o'tkazish bo'yicha podsho farmonlari, bu boradagi hukumat ko'rsatmalari, Turkistonga aholini ko'chirish bo'yicha tuzilgan ro'yxatlar, Turkistonda saylovga tayyorgarlik, o'lkada saylov uchun alohida qoidalarning ishlab chiqilishi va o'tkazish bo'yicha hisobotlar, joylarda saylov bo'yicha olib borilgan targ'ibotlar, saylov muddatlari, Turkistondan saylangan deputatlar haqida, o'lkadan Davlat dumasiga vakillikni tiklash bo'yicha ma'lumotlar jamlangan.

I-274 fondida Sirdaryo viloyatida II Davlat dumasiga o'tkazilgan saylovlar haqidagi ma'lumotlar berilgan. Unda Dumaga saylovlar haqidagi podsho Manifesti, 1905-yil 11-dekabrda qabul qilingan saylov qonuni nusxalari, viloyatdagi saylovchilar ro'yxati va ularning arizalari, mahalliy aholining Davlat dumasiga a'zoligi haqidagi takliflari, saylovni o'tkazish borasidagi hukumat Senati ko'rsatmalari, Toshkent shahar dumasiga raisi N.G.Mallitskiyga Duma majlislarida ishtirok etish uchun berilgan ruxsatnoma mavjud [20]. Ushbu fond Davlat dumasiga saylovlar haqida muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Muvaqqat hukumatning Turkiston o'lkasi borasidagi qarorlari, Turkiston Qo'mitasining o'lkani boshqarish bo'yicha olib borilgan amaliy ishlari, o'tkazilgan majlislar jurnallari, shu bilan birga, Davlat dumasiga saylov ishlarining tashkil etilishi haqidagi ma'lumotlar I-1044-fondida saqlanadi [21].

Farg'ona viloyati Skobelev uyezdi boshqarmasiga oid I-23-fondida [18] viloyat bo'yicha Davlat dumasiga saylovlar bo'yicha tuzilgan komissiyalar haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.

Samarqand viloyati uyezdlarida I Davlat dumasiga saylovlar muddati va II Davlat dumasiga o'tkazilgan saylovlar bilan bog'liq ma'lumotlar I-22-fondida jam bo'lib, unda viloyat bo'yicha saylovlarni tashkil etish bo'yicha Ichki ishlar vazirligi va hukumat Senati ko'rsatmalari kabi ma'lumotlarni uchratish mumkin [17].

Toshkent shahar boshlig'i boshqarmasiga oid I-36-fondida esa Davlat dumasida qonun qabul qilish jarayoni haqidagi muhim ko'rsatmalar berilgan [19].

Farg'ona viloyati ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetiga oid bo'lgan 121-fondida Butunrossiya Ta'sis Majlisiga viloyat bo'yicha tayyorgarlik, Turkiston Muxtoriyatiga viloyat sovetining munosabati, Turkiston Muxtoriyati, Xalq Sho'rosi (Milliy majlis) faoliyati kabi ma'lumotlar jamlangan [42].

Bundan tashqari, Butunturkiston musulmonlari I qurultoyida ko'rilgan masalalar, Marg'ilon (Farg'ona) shahar-uyezdi ishchi, soldat va dehqon deputatlari soveti Ijroiya Qo'mitasiga oid hujjatlar [43], Ta'sis Majlisiga saylov o'tkazish bo'yicha tuzilgan okrug komissiyasi ma'lumotlari, Qo'qon shahri bo'yicha saylov o'tkazish muddatlari, Farg'ona viloyati bo'yicha Ta'sis Majlisiga saylov natijalari, "Sho'roi Ulamo" jamiyatining Ta'sis Majlisiga saylovda ishtirok etishi lozim bo'lgan nomzodlar ro'yxati berilgan [45].

911-fondida esa Marg'ilonning eski shahar qismida Butunrossiya Ta'sis Majlisiga o'tkazilgan saylovlar, saylov uchun tuzilgan nomzodlar ro'yxati haqida ma'lumotlar [46], 291-fondida

Skobelev uyezdi bo'yicha Butunrossiya Ta'sis Majlisiga o'tkazilgan saylovlar va ularning natijalari haqida ma'lumotlar jamlangan [44].

Farg'ona shahar ishchi, dehqon va soldat deputatlari sovetiga oid 8-fondga Farg'ona shahri bo'yicha Butunrossiya Ta'sis Majlisiga o'tkazilgan saylovlar haqida ma'lumotlar saqlanadi [41]. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arxiv hujjatlari parlamentchilik faoliyatiga oid muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Manbalarning to'rtinchi guruhini voqealarni o'z boshidan kechirgan va ishtirokchisi bo'lgan, ba'zan esa tadqiq qilayotgan siyosiy jarayonlarga boshchilik qilgan shaxslar tomonidan yozilgan memuar va xotira kitoblari tashkil etadi [12, 1, 48, 24, 15, 7, 14, 13, 11, 4]. Ushbu guruhga kiruvchi manbalarni asosan ikki qismga bo'lish mumkin: 1) Rossiya Davlat dumasini haqida xotira yozgan mualliflarning asarlari; 2) 1917-yilgi siyosiy voqealar haqidagi esdaliklar.

Rossiya Davlat dumasini haqida xorijda yozilgan dastlabki asar V.A.Maklakovga tegishlidir [12, 98-219]. Asarda Rossiya Davlat dumasining birinchi va ikkinchi chaqiriqlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Asar Rossiya Davlat dumasini haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradi. Lekin Turkistondan mustamlaka o'lkada saylov ishlarining o'tkazilishi va mahalliy vakillar faoliyati haqida ma'lumotlar deyarli berilmagan.

XIX asrda Turkiston o'lkasida parlamentchilikka oid dastlabki g'oyalar o'rta tashlana boshlagan. Ahmad Donish "Navodirul vaqoe (Nodir voqealar)" asarida parlamentchilikka oid dastlabki qarashlarini bayon etgan [1. 59-61]. Muallifning fikrlari utopik ko'rinishda bo'lsa-da, ushbu masala ilk bora o'rta tashlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Turkiston Muxtoriyati hukumatiga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan bolshevik vakillarining ham xotiralari tadqiqot uchun muhimdir, chunki ushbu kitoblarda sovet hokimiyati davrida chop etilgan bo'lsa-da, ba'zi faktlarni inkor eta olmaganlar [24. 138-140].

Turkiston Musulmonlar Sho'rosi raisi, Muvaqqat hukumat Turkiston Qo'mitasi a'zosi va Turkiston Muxtoriyati Bosh vaziri bo'lgan M.Cho'qayevning xotiralari muallif tomonidan berilgan shaxsiy kechinmalar sifatida tarixchilar uchun muhim hisoblanadi [15. 138-140].

Ahmad Zaki Validiy To'g'onning xotiralari masalaga to'liq oydinlik kirita olmasa-da, unda o'sha davr haqida umumiy ma'lumotlar mavjud. Ayniqsa, manbadagi 1917-yilgi voqealarga oid ma'lumotlar muhim hisoblanadi [48. 138-140]. Muallifning rus tilida nashr etilgan xotiralarida esa 1917-yil davomida Turkistonning turli hududlariga sayohat qilganligi, Buxoroda bo'lgan vaqtda 7 punktdan iborat "Erk" partiyasi Nizomi tuzilganligi haqidagi ma'lumotni olish mumkin [7. 46-47]. Lekin muallifning har ikki asarida ham Turkistonda parlamentchilik taraqqiyoti haqida keng ma'lumotlar keltirilmagan.

Turkiston jadidlarining yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning mustaqillik davrida nashr etilgan asarlari to'plamida XX asr boshida muallifning davlat boshqaruv shakllari, Turkiston va Butunrossiya musulmonlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqidagi ma'lumotlarni bevosita uchratish mumkin [13. 149-151, 243-244].

Jadidchilik harakati yetakchilaridan biri – Munavvar qori Abdurashidxonov asarlarida Yevropa davlatlarida parlamentchilik tizimi o'rnatilganligi haqida ma'lumot berib o'tiladi [14. 101-104]. Muallif Turkistonda parlamentchilikka oid keng ma'lumotlar keltirmasa-da, unda bu boradagi fikrlar mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Moskva gubernatori bo'lgan Knyaz Vladimir Golitsin (1847-1932) 65 yil davomida kundalik tutgan. 1917-yil iyul oyidan 1918-yil iyul oyigacha bo'lgan yozuvlarida muallif davlatda tartib o'rnatish bahonasida tartibsizlik, boshboshdoqlik va zo'ravonlik hukm surgani haqida yozadi [11].

Rossiya Davlat dumasi haqida uzoq yillar Turkistonda bo'lgan A.Zurabovning o'lka haqidagi xotiralari bu yerda Dumaga saylovlar o'tkazish umumiy manzarani tasavvur qilishda muhim o'rin tutadi [4. 519-523].

Shunday qilib, memuar va xotira kitoblari tadqiqot uchun asosiy manba bo'la olmasa-da, o'sha davrda o'lkadagi siyosiy vaziyatni his etish imkoniyatini beradi. Bu esa bo'lib o'tgan voqealar haqida to'g'ri xulosalar chiqarishda g'oyatda muhim.

Davlat dumasi stenografik hisobotlari va davriy matbuot materiallari olib borayotgan tadqiqot uchun eng muhim manba hisoblanadi, chunki matbuot haqida ham shunday fikr bildirishimiz mumkin. Shu ma'noda stenografik hisobotlar va davriy matbuot ma'lumotlari asl manbalar hisoblanadi. Ammo mavzuni o'rganish uchun juda muhim bo'lgan "Izvestiya" gazetasi sonlarining o'z vaqtida bolsheviklar hukumati tomonidan yo'q qilinganligi tadqiqot vazifalarini bajarishni hiyla murakkablashtirdi.

Davlat dumasi haqidagi arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lsa-da, Turkiston Muxtoriyatiga oid arxiv ma'lumotlari ochiq fondlarda yetarli emas. Shuning uchun mavjud matbuot va oz sonli arxiv fondlaridan foydalanish imkoniyatigagina ega bo'lindi.

Umuman Davlat dumasi stenografik hisobotlari, davriy matbuot materiallari, arxiv manbalari, memuar va xotiralar Turkistonda parlamentchilik g'oyalarining vujudga kelishi hamda taraqqiy etishi masalasini yoritishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Turkistonda parlamentchilik g'oyalarining vujudga kelishi, rivojlanishi va uni amalga oshirish uchun kurash haqidagi ma'lumotlar o'z davrida jadid namoyondalari asarlari, jadidlar tomonidan matbuotda e'lon qilingan maqolalarda, Davlat dumasi stenografik hisobotlarida hamda arxiv hujjatlarida qisman saqlanib qolgan. Shuning uchun Davlat dumasi stenografik hisobotlari, davriy matbuot hamda arxiv ma'lumotlari Turkistonda parlamentchilik g'oyalari vujudga kelishi va rivojlanishini tadqiq qilishda manbalarni tahlil qilish, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Аҳмад Дониш. Наводирул вақое (Нодир воқеалар) – Тошкент. Ўзфаннашр, 1964. – 409 б.
2. Асхабад. 1907. 27 января.
3. Вестник Временного правительства. 1917. 25 мая.
4. Выборы в I – IV Государственные думы Российской империи. (Воспоминания современников. Материалы и документы) // Авторы концепции проекта и составители: И.Б. Борисов, Ю.А. Веденеев, И.В. Зайцев, В.И. Лысенко / Под общ. научн. ред. А.В. Иванченко. – Москва, 2008. – 860 с.
5. Государственная Дума. Указатель к Стенографическим отчетом, второй созыв, 1907 год: заседания 1-53 (20 февраля – 2 июня 1907 года). – Санкт-Петербург, 1907. – 322 с.
6. Государственная Дума. Указатель к Стенографическим отчетам. Второй созыв 1907 год. Сессия II. – Санкт-Петербург, 1907. – 2230 с
7. Заки Валиди Тоган. Воспоминания. Книга II. – Уфа: Китап, 1998. – 366 с.
8. Законотворчество думский фракций. 1906 – 1907 гг. Документы и материалы // Фонд изучения наследия П.А.Столыпина, ред.коллегия И.И.Демидов, В.В.Шелохаев. – Москва: РОССПЭН, 2006. – 756 с.
9. Знамя свободы. 1917. 7 июня, 15 августа, 17 октября, 19 октября, 20 октября, 24 октября, 25 октября,
10. Зурабов А. Вторая Дума (воспоминания). – Санкт-Петербург, 1908. – 196 с.
11. Князь Владимир Голицын. Дневник 1917-1918 годов. – Москва, 2008. – 384 с.

12. Маклаков В.А. Вторая государственная дума (воспоминания современника). – Париж, 1914. – 257 с.
13. Махмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 280 б.
14. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Сирожиддин Аҳмедов. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 304 б.
15. Мустафо Чўқай ўғли. Истиқлол жаллодлари (1917 йил хотиралари). – Тошкент, 1992. – 80 б.
16. НАУз, И-1 фонд – Канцелярия Туркестанского генерал – губернатора.
17. НАУз, И-22 фонд – Управление начальника Каттакурганского уезда Самаркандской области.
18. НАУз, И-23 фонд – Управление начальника Скобелевского уезда Ферганской области.
19. НАУз, И-36 фонд – По выборам Государственную Думу.
20. НАУз, И-274 фонд – Сырдаринской областной по делам о выборах в Государственную Думу комиссии.
21. НАУз, И-1044 фонд – Резолюции Временного Правительства.
22. Новый путь. 1918. 3 января.
23. Рабочая газета. 1917. 4 августа.
24. Революция глазами современников. Сборник статей и воспоминаний // Составитель С.А.Дмитриева. – Ташкент: Ўзбекистон, 1991. – 236 с.
25. Свободный Туркестан. 1918. 30 декабря, 24 января, 30 января, 15 (2) февраль.
26. Свободный Самарканд. 1917 3 декабря, 5 декабря, 1917. 8 декабря, 14 декабря,
27. Стенографические отчеты: Т.1./ Гос. Дума. Второй созыв. 1907 г. Сессия вторая. – Санкт-Петербург, 1907. – 1158 с.
28. Туркестанский вестник. 1917. 5 декабря, 9 декабря.
29. Туркестанские ведомости. 1907. 5 (18) января, 28 января, 2 (15) февраля, 9 (22) февраля, 11 (24) февраля, 14 (27) февраля, 6 (16) марта, 9 (22) марта, 1917. 21 ноября (4 декабря).
30. Туркестанский сборник. Т. 417, 421, 422, 423, 428, 433, 434, 435, 444, 447, 461, 468, 469.
31. Туркестанский сборник. Т. 417. – С. 18, 39, 85, 177, 179.
32. Туркестанский сборник. Т. 422. – С. 61.
33. Туркестанский сборник. Т. 423. – С. 31, 40, 41-43, 60, 65, 66,
34. Туркестанский сборник. Т. 433. – С. 181, 179
35. Туркестанский сборник. Т. 447. – С. 40.
36. Туркестанский сборник. Т. 428. – С. 32-35, 54-55.
37. Туркестанский сборник. Т. 444. – С. 179.
38. Туркестанский сборник. Т. 442. – С. 22.
39. Туркестанский сборник. Т. 468. – С. 18.
40. Туркестанский сборник. Т. 434. – С. 100.
41. ФВДА, 8 фонд – Выборы Учредительную Собранию по города Фергана.
42. ФВДА, 121 фонд – Ферганскую областную совет рабочих, солдатах и крестьянов.
43. ФВДА, 229 фонд – Исполнительный комитет города Маргилан (Фергана) городско-уездной рабочий, солдатских ва крестьянских депутатов совет.
44. ФВДА, 291 фонд – Выборы Учредительную Собранию по Скобелевскую уезду.
45. ФВДА, 378 фонд – Выборы Учредительную Собранию по Ферганскую округу.
46. ФВДА, 911 фонд – Выборы Учредительную Собранию по городам Маргилана.
47. Ўзбек тилининг изоҳли луғати // А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – 560 б.
48. Zeki Velidi Toğan. Hatiralar. – Istanbul, 1969. – 672 s.

طوجار; 11 مای; 1906. 22 یانوار; اولفت. 1906. 29 یانوار, 10 یانوار, 1907. 2 یانوار. 1906. ترقی. 49.
1907. 9 اکتوبر; گزتی. تورکیستان ولایتی گزتی. 1906. 15 فبرال, 2 مای, 24 مای, 1908. 10 یانوار, 17
فبرال; سمرقند. 1913. 10 ستمبر; گزتی. تورکیستان ولایتی گزتی. 1906. 15 فبرال, 2 مای, 24 مای;



INNOVATIVE
ACADEMY